

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RAXMONOV SUNNATILLO MAVLONOVICH

**JALOLIDDIN RUMIY VA BAHOUDDIN NAQSHBAND TASAVVUFY
QARASHLARINING QIYOSIY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc)

Content of the Doctoral Dissertation (DSc) Abstract

Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich

Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining qiyosiy-falsafiy tahlili..... 3

Рахмонов Суннатилло Мавлонович

Сравнительно-философский анализ суфиских взглядов Джалалиддина Руми и Бахауддина Накшбанда 29

Rakhmonov Sunnatillo Mavlonovich

Comparative philosophical analysis of the Sufi views of Jalaliddin Rumi and Bahauddin Naqshband..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RAXMONOV SUNNATILLO MAVLONOVICH

**JALOLIDDIN RUMIY VA BAHUDDIN NAQSHBAND TASAVVUFY
QARASHLARINING QIYOSIY-FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Fa197 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Karimov Sayimnazar Karimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna
falsafa fanlari doktori, professor

Mahmudova Guli Tilabovna
falsafa fanlari doktori, professor

Ro'zmatzoda Qodirqul Ruzmat o'g'li
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "10" iyun soat 10 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40, 239-1892; faks: (0366) 239-11-40; emil: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 78 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "20" may kunida tarqatildi.
(2023-yil "22 may" daqi "78" raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixiy taraqqiyotida shiddat bilan yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga buyuk allomalar ilmiy merosining ma'naviy-axloqiy jihatdan g'oyaviy ta'sir o'tkazishi va ma'naviy qadriyatlar tizimida vujudga kelayotgan o'zgarishlarni barqarorlashtirishi konstruktiv masalaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, global rivojlanish va informatsion xurujlar tahdid solib turgan bir davrda, insoniyatni ma'naviy tubanlik illatlaridan xalos etish bugungi davrning dolzarb masalalaridan sanalmoqda. Bunda tasavvufning o'rni benihoya katta bo'lib, bugungi zamonaviy yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan komil inson bo'lib shakllanishida Sharq mutafakkirlarining tasavvufiy-falsafiy ta'limoti alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Zero, Sharq mutafakkirlarining irfoniy-falsafiy merosi hamda ular yaratgan tariqatlardagi komillik ta'limoti hozirgi davrdagi radikal o'zgarishlarni ma'naviy-ruhiy jihatdan me'yorlashtirishi bilan birga, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan insonparvarlik tamoyillarni ham saqlab qolmoqda.

Jahon ilm-fanining bugungi tadqiqotlarida buyuk mutafakkirlarning falsafiy merosini tadqiq etish orqali ma'naviy-axloqiy faoliyat mezonlarini o'rganuvchi soha sifatida tasavvuf falsafasining nazariyasi va amaliyotiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, dunyo tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan buyuk mutasavviflar ma'naviy merosidagi tasavvufiy qarashlar bilan bir qatorda, ular asos solgan tariqatlar g'oyasidagi ma'rifat, haqiqat va ma'naviy taraqqiyotga oid inson kamoloti to'g'risidagi ruhiy-axloqiy tarbiya kabi masalalarni bugungi kun ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish ijtimoiy-falsafiy fanlar sohasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya, nafsni tiyish, qalb tarbiyasi, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, adolat va insonparvarlik kabi insonni komillikka yetaklovchi g'oyalar va irfoniy qarashlarni falsafiy tahlil qilish bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishiga zamin yaratuvchi buyuk tasavvuf allomalarning ulkan ilmiy merosini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish orqali undan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. "Bizning yurtimizdagidek boy o'tmish, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga va dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"¹. Aynan ushbu vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo, o'rta asrlar Sharq falsafasida shuhrat qozongan Jaloliddin Rumiyning falsafiy-irfoniy qarashlari hamda temuriylar davrida rivojlanish cho'qqisiga chiqqan Bahouddin Naqshbandning naqshbaniya tasavvufiy ta'limotlarida ilgari surilgan irfoniy-falsafiy g'oyalarini izchillik bilan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: Ислом цивилизацияси маркази асрлар давомида халқимизга хизмат қилади. Халқ сўзи. 20.11.2019. № 206 (6641). -Б. 1.

Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida" qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹.

O'rta asrlar Sharq falsafasida o'zining tasavvufiy qarashlari bilan shuhrat qozongan buyuk mutasavviflarining ma'naviy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlarini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Islamic Supreme Council of America, (AQSH), McGill University, Institute of Islamis Studies (Kanada), Al-Azhar University (Misr), Rossiya FA qoshidagi Sharq qo'lyozmalari instituti (Rossiya), Institute of Central Asia, Sorbone University (Fransiya), Cembridge, Oxford, London University (Buyuk Britaniya), Istanbul University (Turkiya) shuningdek, Tojikiston fanlar akademiyasi falsafa va sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Tojikiston davlat milliy universiteti (Tojikiston), O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Dunyoda Sharq falsafasining me'yoriy-axloqiy tendensiyalarini tadqiq etish hamda Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ilmiy merosini tarixiy-falsafiy jihatdan yoritish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosi, xususan, Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ilmiy merosidagi

¹ Қаранг: А.Арберри. Суфизм. Мистики ислама. М. 2002., Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. - М. 2002., А.Зарринкуб. Исламская цивилизация. М.2004., А.Хисматуллин. Исламский мистицизм и хаджаган-накшбандия//Мудрость суфиев. - С-Птб. 2001., А.Мухаммадходжаев. Идеология накшбандизма. - Душанбе, 1991., С.В.Еrnst. Teachings of Sufism. - London. 1999., М.Фakhry A History of Islamic Philosophy. - New York, 1983. Шунингдек, диссертация мавзусига доир хорижий илмий-тадкикотлар шархи <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp> каби электрон ресурслар манбалари асосида тайёрланди.

diniy bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik va ruhiy-ma'naviy uyg'unlikni targ'ib qilishning mohiyati ilmiy asoslangan (Islamic Supreme Council of America, AQSH); Jaloliddin Rumiy qarashlarida islom dini qadriyatlarini integratsiya qilinishi tahlil etilgan (McGill University, Institute of Islamis Studies (Kanada); Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband irfoniy qarashlarining umumtasavvufiy tamoyillari asoslangan (Al-Azhar University (Misr); turkiyzabon xalqlarda Sharq mutafakkirlari, xususan, mavlaviya va naqshbandiya tasavvufiy tariqati namoyondalarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari hamda ushbu tariqatlardagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalarining inson kamolotiga ijobiy ta'siri yoritilgan (Rossiya FA qoshidagi Sharq qo'lyozmalari instituti. Rossiya); Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband o'gitlaridagi tasavvufiy-falsafiy g'oyalar rivojiga hissa qo'shuvchi ilm, hikmat va ma'rifatga undovchi komillik mezonlarining ahamiyati tahlil etilgan (Institute of Central Asia, Sorbone University (Fransiya); Buyuk mutasavviflarining ma'naviy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy tadqiqotlar orqali tadqiq etilgan (Cembridge, Oxford, London University (Buyuk Britaniya); Jaloliddin Rumiyning falsafiy-irfoniy qarashlari, Xojagon-Naqshbandiya ta'limotining falsafiy tamoyillarini tadqiq etish borasidagi fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan (Istanbul University, Turkiya); Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ilmiy merosining sharhlari ishlab chiqilgan (Tojikiston davlat milliy universiteti, Tojikiston); Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi) va Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini zamonaviy tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston).

Dunyoda Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning ma'naviy merosida tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlarini o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Jaloliddin Rumiy diniy irfoniy, dunyoni bilish, qalb pokligi to'g'risidagi qarashlarini ochib berish; Bahouddin Naqshbandning diniy bag'rikenglik va tariqatlararo o'zaro hamjihatlikni shakllantirishga oid qarashlarining falsafiy tahlili; tasavvufiy tariqatlarning nazariy g'oyalaridan zamonaviy yoshlarning axloqiy tarbiyasida foydalanish; Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosining bugungi ahamiyatini ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda, xususan, AQSHda Rumiy ijodiga qiziqish XIX-asrdan boshlanib, R.Nikolson va A.Arberri kabi olimlar Rumiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilganlar. Shuningdek, XX-asrdan boshlab, Sharq mutafakkirlarining insonning ma'naviy-axloqiy kamolotiga oid asarlarini kompleks ravishda o'rganish ishlari jadallashtirildi. Natijada, mutafakkirlar ijodini o'rganish bo'yicha dastlab amerikalik islomshunos olim U.Chittik, Sh.Djan, Dj.Baldok va K.Ernst kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan bo'lsa keyinchalik, ingliz olimlaridan Dj.S.Trimingem, kanadalik islomshunos olim N.Hir shuningdek, Idris Shoh, H.Korbin, Q.Kokoiy, A.Mazohiriy, K.Muhammadiy, P.Morvedj, afg'on olimlari M.Muballig', Majid Faxri¹, Frits Mayer, Yurgen Paul, Devin

¹ Fakhry M. A history of islamic philosophy. - N.Y.: L.Columbia univ. press, 1970. XV. - 427 p.

Di Uis, Bernd Radtke, N.M.Hiraviy, turk olimlari U.Turar, M.A.Jo‘shon, S.Uludog‘, N.To‘su kabi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning ilmiy merosi va tasavvuf falsafasining mohiyati o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida Ye.E.Bertels¹, M.T.Stepanyans, N.Boldrev, V.A.Gordlevskiy, A.V.Smirnov A.D.Knish, A.A.Xismatulin, O.M.Yastrebov², Yu.A.Ionnesyan, A.A.Muxamedxodjayev, M.S.Shamsov, M.Rajabov, A.Afsahzod kabi olimlar tomonidan ham o‘rganilgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning ilmiy falsafiy meroslari turli davrlarda tadqiq etilgan. Jumladan, I.M.Mo‘minov³, M.N.Boltayev, M.M.Xayrullayev, X.Aliqulov, B.M.Babadjanov, S.K.Karimov, R.T.Shodiyev, B.O.To‘rayev, G.N.Navro‘zova, A.A.Xuseynova, N.O.Safarova, J.M.Xolmo‘minov, B.Namozov va adabiyotshunos olimlardan N.Komilov, B.Valixo‘jayev, I.Sulton, O.Usmon, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov, S.Olim, N.Jo‘rayev, Z.Qutiboyev va B.Bobojonovlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlari orqali ushbu ilm sohasining rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Falsafa fani xususan, tasavvuf falsafasi yoki naqshbandiya tariqatiga doir maxsus dissertatsiya tadqiqotlarida: S.K.Karimovning “XIV-XV-asrlarda Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy tafakkurning rivojlanishi”, R.T.Shodiyevning “Markaziy Osiyo tasavvuf ta’limotlarining genezisi”, G.N.Navro‘zovaning “Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi”, J.M.Xolmo‘minovning “Vahdat ul-vujud falsafasi va uning naqshbandiya ta’limotiga ta’siri”, A.A.Huseynovanning “Naqshbandiya ta’limoti namoyondasi Abdurahmon Jomiyning irfoniy, tasavvufiy qarashlari” kabi tadqiqotlari va izlanishlari mavzu doirasidagi muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy ahamiyatga molikdir.

Markaziy Osiyo tasavvuf ta’limoti va namoyondalari merosini tadqiq etishda B.B.Namozov “Muhammad Porso tasavvufiy ta’limotining falsafiy asoslari”; O.T.Sharipova “Abduxoliq G‘ijduvoni ma’naviy me’rosining falsafiy tahlili”; S.T.Ismoilov “Naqshbandiya tariqatining tasavvuf ta’limotidagi o‘rnini”; X.R.Raxmatova “Xoja Ahror Valiy ta’limotining ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari tahlili”; E.X.Zoirov “Maxdumi A’zamning ijtimoiy-siyosiy qarashlari”; X.O‘.Samatov “Maxdumi A’zam Kosoniyning ma’naviy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni” V.E.Cho‘liyeva “Bahouddin Valad va Jaloliddin Rumiy falsafasida inson muammosi: qiyosiy-analitik tahlil” kabi maxsus dissertatsiya ishlarida ilmiy nazariy jihatdan qiyosiy tadqiq etilgan.

Manbashunoslik sohasida N.Komilov⁴, Sh.Ziyodov M.Ismoilovlarning izlanishlari mavzu doirasida tasavvuf istilohlari, tasavvufiy manbalar orasidagi yaqinlik va o‘zaro g‘oyaviy bog‘liqlik masalalarini tadqiq etishda metodologik ahamiyatga ega bo‘ldi.

¹ Бертельс Е. Суфизм и суфийская литература. Т. 3. – Москва, Наука, 1965; - С. 527.

² Ястребов О.М., Бабаджанов Б. Мудрость суфиев. – М.: Санкт-Петербургское Востоковедение, 2001. –С.290

³ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1968.

⁴ Комилов Н. Тасаввуф 1-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б.151; Комилов Н.Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент: Фафур Фулом, 1999. – Б. 189.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, mazkur tadqiqotlarda tasavvuf falsafasi yoki tariqatlarning alohida diniy falsafiy jihatlari tadqiq etilgan. Lekin, Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy qarashlari qiyosiy-falsafiy tahlil etilib, bu borada yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Demak, dissertatsiya mavzusi doirasidagi muammo ilk bor tadqiq etilishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2022-yillarga mo'ljallangan PQ-2020022811 raqamli "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy qarashlariga oid manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda falsafa tarixidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining qiyosiy tahlilini ularning ilmiy merosiga oid manbalarni tadqiqot obyektiga aylantirish orqali ochib berish;

Jaloliddin Rumiyning inson ma'naviy-ruhiy tarbiyasi, xulq-atvor go'zalligi hamda qalb sofligi va halovati xususidagi tasavvufiy qarashlari zamonaviy shaxs tarbiyasida muhim ekanligi falsafiy asosda ochib berish;

Mavlaviya va naqshbandiya tariqatlarida falsafiy bilimlar tizimida murakkab ilmiy konseptual muammolarining (zulm, adolatsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash, nafsni tiyish, qalb va ruh tarbiyasi masalalari) qiyosiy tahlilini ishlab chiqish;

Amir Temur va temuriylar davrida naqshbandiya tariqatining diniy bag'rikenglik, ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni saqlash hamda vatanparvarlik va adolatni ta'minlash borasidagi gumanistik faoliyatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ochib berish;

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlaridagi inson ma'naviy olamini boyitish va komil insonni tarbiyalash borasidagi g'oyaviy-falsafiy uyg'unlikning zamonaviy yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi manba sifatidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy-falsafiy merosi olingan.

Tadqiqotning predmeti Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy qarashlarini qiyosiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va germeneytik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning xulq-atvor go'zalligi, qalb sofligi, halollik kabi tasavvufiy qarashlari inson kamolotida konstruktiv ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan;

Bahouddin Naqshbandning inson mohiyati va tabiati, uning ruhiy kamoloti nafs tarbiyasi va doimo mehnatda bo'lish konsepsiyalarining yoshlar tarbiyasiga funksional ta'siri yetakchi o'rinda ekanligi mantiqiy dalillangan;

Temuriylar davrida naqshbandiylik tariqatining diniy-irfoniy asoslari tariqatning ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari asosida mustahkamlanganligi hamda uning ijtimoiy barqarorlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga oid yetakchilik o'rni asoslangan;

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining diniy-irfoniy asoslari (faqr, sabr, tavba va zikr) falsafiy mushohada etilib, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik, ezgulik va javonmardlik tamoyillarining tasavvufiy-falsafiy ta'limot darajasiga ko'tarilganligi isbotlangan;

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ta'limotlarida zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim sanalgan inson ma'naviy olamini boyitish, komil insonni tarbiyalash, shuningdek, axloqiy tarbiya va nafsni tiyish kabi g'oyaviy-falsafiy uyg'unliklar axloqiy kamolot mezonini ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jaloliddin Rumiy merosida olam va odamning yaralishi muammolari, ma'naviy-ruhiy va axloqiy tarbiya falsafasining mohiyati diniy va dunyoviy dunyoqarashning zamonaviy shaxs tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan;

Bahouddin Naqshband qarashlarida diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, jamiyatning ijtimoiy qatlamlari orasidagi hamjihatlikni ta'minlash, millatlararo munosabatlarda murosa madaniyatiga amaliy va nazariy jihatdan yondashishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan;

mavlaviya va naqshbandiya tariqatlari g'oyalaridagi komil insonni tarbiyalash hamda ilm-ma'rifatning o'zlikni anglash borasidagi mezonlaridan ijtimoiy-ma'naviy hayotda allomalar ilmiy merosidan foydalangan holda mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashuvchi immunitet sifatida foydalanish to'g'risida takliflar ishlab chiqilgan;

zamonaviy jamiyatda tasavvufiy qarashlarning umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasiga oid nazariyalaridan o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va risolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosalar tahlilida, jumladan Sharq mutafakkirlarining hamda mavlaviya va naqshbandiya tariqatlari ta'limotlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlar, yurtimizda va xalqaro miqyosda tasavvuf falsafasining zamonaviy yoshlarni ma'naviy-ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o'rning ortib borishi, shuningdek, Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning falsafiy-irfoniy qarashlaridagi axloqiy tamoyillarning "Falsafa tarixi", "Tasavvuf falsafasi", "Tasavvuf tarixi", "Tasavvuf germenevtikasi" kabi fanlarning mazmuni va nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan xulosalardan Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini keyingi ilmiy tadqiqotlarda dunyo faylasuflari, yoki Sharq mutasavviflarining qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilishda, turli ilmiy tadqiqot institutlari, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari, hamda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-madaniy va ilmiy-amaliy metodik tadqiqotlarida shuningdek, Sharq mutafakkirlari ma’naviy merosiga doir ma’ruzalar, seminar-treninglar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining qiyosiy-falsafiy tahlili bo‘yicha ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy taklif va tavsiyalar asosida:

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning xulq-atvor go‘zalligi, qalb sofliqi, halollik kabi tasavvufiy qarashlari inson kamolotida konstruktiv ahamiyatga ega ekanligiga oid taklif-tavsiyalardan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” mavzusidagi OT-F1-138-raqamli fundamental loyiha ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 9-iyundagi 10-2266-son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim sanalgan inson ma’naviy olamini boyitish, komil insonni tarbiyalash shuningdek, axloqiy tarbiya va nafsni tiyish masalalarini yoritishga xizmat qilgan;

Bahouddin Naqshbandning inson mohiyati va tabiati, uning ruhiy kamoloti nafs tarbiyasi va doimo mehnatda bo‘lish konsepsiyasining yoshlar tarbiyasiga ta’siri yetakchi o‘rinda ekanligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi” mavzusidagi ensiklopediyani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-yil 3-iyundagi 02/273-son ma’lumotnomasi). Natijada, Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning inson ma’naviy-ruhiy tarbiyasi, xulq-atvor go‘zalligi hamda qalb sofliqi xususidagi tasavvufiy qarashlari zamonaviy shaxs tarbiyasida muhim omil sifatida xizmat qilgan;

Temuriylar davrida naqshbandiylik tariqatining diniy-irfoniy asoslari mustahkamlanganligi hamda ushbu tariqatining ijtimoiy hayotdagi yetakchilik o‘rniga oid taklif-tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining IV-yo‘nalishiga oid Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarining “Ajdodlarga munosib voris bo‘laylik” nomli 18-bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yil 28-iyundagi 02/02/1139 ИИ-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar tarbiyasida muhim sanalgan mustaqil fikrlash, tafakkurni yuksaltirishga xizmat qilgan;

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining diniy-irfoniy asoslari (faqr, sabr, tavba va zikr) falsafiy mushohada etilib, diniy

bag‘rikenglik va insonparvarlik, ezgulik va javonmardlik tamoyillarining tasavvufiy-falsafiy ta‘limot darajasiga ko‘tarilganligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining 2022-yilga mo‘ljallangan yo‘l xaritasining 6-bandida ko‘rsatilgan “Ta‘lim sifati – partiya nigohida” loyihasi doirasida ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, “Ajdodlar merosi ulug‘ qadriyat” mavzusida turkum tadbirlar tashkil etish va buyuk ajdodlarimiz tarixini hamda ilmiy merosini o‘rganish, yoshlar orasida turli madaniy va ilmiy mavzularda tanlovlar o‘tkazish kabi dasturlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashining 2022-yil 31-maydagi 01-03/211-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar orasida turli madaniy va ilmiy mavzularda tanlovlar o‘tkazishga xizmat qilgan;

Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband ta‘limotlarida zamonaviy yoshlar tarbiyasida muhim sanalgan inson ma‘naviy olamini boyitish, komil insonni tarbiyalash shuningdek, axloqiy tarbiya va nafsni tiyish kabi g‘oyaviy-falsafiy uyg‘unliklar axloqiy kamolot mezoni ekanligiga oid taklif-tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2022-yilda efirga uzutilgan “Assalom Samarqand!” ko‘rsatuvini navbatdagi senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 25-maydagi 01-12/195-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband ta‘limotlaridagi axloqiy tarbiya masalalarini keng jamoatchilikga yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola (jumladan, 11 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o‘n ikki paragraf, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 230 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Jaloliddin Rumi ta‘limotining nazariy - metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida, Jaloliddin Rumi ijodini o‘rganish falsafiy muammo sifatida, Jaloliddin Rumiyaning falsafiy va diniy dunyoqarashi shakllanishida tasavvuf ta‘limotining ta‘siri hamda Mavlaviya tariqati ta‘limotining falsafiy-irfoniy ta‘limot sifatida rivojlanishi masalalari yoritilgan.

Jaloliddin Rumi 1207-yilning 30-sentyabrida hozirgi Afg'oniston shimolidagi Balx shahrida dunyoga kelgan. Otasi Bahouddin Valad so'fiy va fiqh donishmandi bo'lib, sulton Muhammad Xorazmshoh (1199-1220) tomonidan saroyga taklif etilgan. Lekin, Bahouddin Valad uning taklifini rad etib, Turkiyaning Konya (Ko'niya) shahriga ko'chib ketgan.

Otasining vafotidan so'ng, Jaloliddin Rumi uning o'rniga Ko'niya madrasasining bosh mudarrislik lavozimida faoliyatini davom ettirgan. Mavloni Rumi 1225-yilda Sharafuddin Lolo Samarqandiyning qizi Gavhar xonimga uylanadi. Mavloni bu nikohdan Sulton Valad va Alouddin Chalabiy ismli ikki o'g'illari bo'lib, keyinchalik, Jaloliddin Rumi nomi bilan asos solingan mavlaviylik tariqatini davom ettirganlar.

Jaloliddin Rumi XIII-asr tasavvufining buyuk namoyondasi, shoir, so'fiylik ta'limotining yetuk vakillaridan biridir. Jaloliddin Rumiyni buyuk shaxs sifatida kamol topishi va yaratgan asarlari turli millat vakillari tadqiqotchilari tomonidan turli tillarda yoritilgan. Jaloliddin Rumiyni asl ismi Muhammad ibn Bahouddin Muhammad ibn Muhammad bin Husayn al-Balxiy bo'lib, Mavlaviya tariqatining shayxi sifatida e'tirof etiladi.

“Jaloliddin”, “Rumi”, “Mavlaviy” kabi bir necha taxalluslar bilan shuhrat qozongan alloma yoru do'stlari tomonidan “Mavloni” sifatida e'zozlangan.

Jaloliddin Rumiyni serqirra ijodini o'rganishda Sharq va G'arb olimlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Jaloliddin Rumiyni vafotidan so'ng, dastlab o'g'li Sulton Valad otasining vorisi sifatida uning ishlarini davom ettirib, Rumiyni hayoti va ta'limotini o'zida aks ettirgan “Valadnoma” dostonini yozgan. Keyinchalik, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va asosan Kichik Osiyoda Jaloliddin Rumiyni ilmiy merosini o'rganishga moslashgan “Dorul Masnaviy” nomli maxsus maktablar ochilgan. Natijada, mutafakkirning shoh asari hisoblangan “Masnaviyi ma'naviy” asari asosida, o'sha davrning o'zidayoq o'nlab to'plamlar yaratilgan. Shuningdek, XV-asrdan boshlab barcha mutafakkirlar Jaloliddin Rumi ijodidan ilhomlangan holda o'z asarlarini yaratganlar hamda arab, turk va fors tillarida bir necha yuz jildlik tahlil va sharhlar bitganlar.

Bundan tashqari, aynan o'rta asrlardan boshlab, Jaloliddin Rumi hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha bir qancha olimlarning salmoqli tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Jaloliddin Rumi ijodini o'rganish bo'yicha Sharq allomalaridan Xoja Ahror Valiy, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Ya'qub Charxiy, Boborahim Mashrab, Mirzo Abdulqodir Bedil, Sadridin Ayniy, Muhammad Iqbol kabi olimlar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Naqshbandiya tariqati shayxlaridan Xoja Ahror Valiy, o'zining “Fiqroti Ahroriya” asarida Jaloliddin Rumi ta'limotidan foydalangan bo'lsa¹, Ya'qub Charxiy o'zining “Risolai abdoliya” asarida “Masnaviyi ma'naviy”dan baytlar keltirib, nay timsoli sharhiga bag'ishlangan o'zining “Nay risolasi”ni yozadi.

¹ Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Фикроти Аҳрорийа / Табаррук рисолалар. Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўзбоши ва изоҳ муаллифи М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ, Ҳ.Амин. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 106.

Ushbu risolada Ya'qub Charxiy nay nolasini "Oriflarning muborak nafaslaridir", deb e'tirof etadi¹.

Naqshbandiya tariqatining yana bir yirik vakillaridan bo'lgan, shoir Abdurahmon Jomiy esa o'zining "Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds" asarida Jaloliddin Rumiyning hayoti va faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlarni keltirib, "Masnaviy"ni sharhlash bo'yicha o'ziga xos Hirot maktabini yaratgan. Abdurahmon Jomiy Jaloliddin Rumiyni sharaflab shunday yozadi:

Bayt:

*Man chi go 'yam vasfi on olijanob,
Nest Payg'ambar, vale dorad kitob².*

Tarjimasi:

Men bu ulug' janob vasfida ne so'ylayin,
Payg'ambar emas, lekin kitobi bor.

Professor Hamidulla Boltaboyev, Abdurahmon Jomiyning ushbu misralarni Jaloliddin Rumiya munosib ko'rishi va ilohiy kitobni Mavlono "Masnaviy" siga solishtirishi to'g'ri bo'lmasada, islom olamida shariflik rutbasi payg'ambarimizning Hadislaridan so'ng ushbu kitobga nisbatan qo'llanilganini inobatga olgan holda, Jomiy tomonidan berilgan ta'rifining o'rinli qo'llanilganligini e'tirof etadi. Shuningdek, atoqli mavlaviyshunos olim Mavlono Obiddin Poshsho o'zining "Tarjima va sharhi Masnaviyi sharif" asarining kirish qismida Abdurahmon Jomiy misralarni yozib qo'yganligi, Jaloliddin Rumiya asariga berilgan ta'rifning haqqoniyligini yana bir bor isbotlaydi.

XVII-asrga kelib, Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosini tarjima qilish va o'rganish borasida aniqrog'i, "Masnaviyi ma'naviy" asarini o'zbek tilida sharhlash bo'yicha shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab xizmatlari beqiyosdir. Boborahim Mashrab Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari asosida o'zining "Mabdayi nur" ("Nurning kelib chiqish joyi") nomli, o'zbekcha sharhli asarini yaratgan. "Mabdayi nur" asari diniy-axloqiy va afsonaviy, hikoyalar bilan boyitilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo jadidchilik harakatining namoyondalaridan bo'lgan dramaturg, shoir va olim Abdurauf Fitrat ham Boborahim Mashrabning "Jaloliddin Rumiya qarashlari ta'siri ostida" ijod qilib, Jaloliddin Rumiyni o'ziga "ma'naviy ustoz" sifatida qabul qilganligini va "Masnaviy"dan ta'sirlanib o'zining "Mabdayi nur" asarini yaratganligini e'tirof etgan³.

XVII-XVIII-asrlarga kelib, Jaloliddin Rumiyning ilmiy me'rosi mashhurlikda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarlari bilan bir qatorda turgan. Shuningdek, Mavlono Rumiyning ilmiy merosi nafaqat Sharqda, balki G'arb faylasuflari va adabiyotshunoslari, orasida ham shuhrat qozongan. Jumladan, nemis mutafakkiri, faylasuf Iogann Volfgang Gyote, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiy bilan bir qatorda Jaloliddin Rumiya ijodini ham ulug'lab, uning ilmiy

¹ Мухаммад Истеъломий. Илохий ишқ куйчиси. "Маснавий"га муқаддима. (Мавлоно Жалолиддин Мухаммад Балхий). Форс тилидан Жаъфар Мухаммад таржимаси. –Техрон, 2001. –Б. 80.

² Жалолиддин Румий. "Маснавийи маънавий". – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 13.

³ Абдурауф Фитрат. Машраб // Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2000. – Б. 97.

merosini “Xizr chashmasi” deb atagan. Jovanni Bokkachcho esa “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi qator hikoyatlar asosida o‘zining novellalarini yaratgan. Shunday ekan, Jaloliddin Rumiylah jahonning barmoql bilan sanarli eng buyuk faylasuflari e’tirofida bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Rumiylah o‘zini an’anaviylah ma’nodagi faylasuf ham, shoir ham deb hisoblamagan, balki o‘zini Allohga cheksiz muhabbat bildirgan inson deb bilgan. Jaloliddin Rumiylah ilmiylah merosini o‘rganayotgan tadqiqotchi olimlarning fikricha, Rumiylah ijodiga Imom G‘azzoliylahning diniylah qarashlari, so‘fiylah shoir Sanoiy va Farididdin Attorning ijodlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, Jaloliddin Rumiylahning falsafa, tasavvuf hamda she’riylah bobida yuksak darajaga ko‘tarilishida shayx Shams Tabriziylah va Farididdun Attorlarning hissalarini beqiyosdir.

Jaloliddin Rumiylahning tasavvuf olamiga kirib kelishini Shayx Farididdin Attor bashorat qilganligi bir necha manbalarda qayd etilgan. Makka ziyoratiga yo‘l olgan Bahouddin Valad va uning o‘g‘li Nishopurga yetganidan xabar topgan Shayx Farididdin Attor ularning qarshisiga chiqadi. O‘spirinning suhbatidan mamnun bo‘lib, unga o‘zining “Asrornoma” kitobini bag‘ishlaydi va otasiga qarata: “O‘g‘lingiz tez orada olamdagi barcha kuyganlar qalbiga otash soladi”¹, - deb bashorat qiladi.

Jaloliddin Rumiylah tariqat yo‘lini tutgach dastlab, shoir Said Burhoniddinga shogird tushadi, so‘ng qalandar so‘fiylah Shamsiddin Muhammad Tabriziylah bilan do‘stlashib, uni o‘zining piri deb e’lon qiladi.

Jaloliddin Rumiylahning 1244-yil 12-noyabrdagi Shamsi Tabriziylah bilan ilk suhbatini manbalarda “Ikki dengizning uchrashuvi” deb qayd etilgan. Rumiylahning o‘zi ham bir baytida: “Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo‘lsa, Shamsi Tabriziylah tilsim kalitini tutqazdi”², deb ta’kidlagan. Biroq, bu hamjihatlik uzoqqa cho‘zilmaydi. Tabriziylahning g‘oyib bo‘lishidan qattiq ta’sirlangan Rumiylah piriylahning ismi sharifini taxallus qilib, g‘azallar yoza boshlaydi. Jumladan, qirq ikki ming baytdan iborat “Devoni Kabir” – “Ulug‘ devon” (ikkinchi nomi “Devoni Shamsi Tabriziylah”) asarini piriylahga bag‘ishlab yozadi. Ushbu asarning “Devoni Shamsi Tabriziylah” nomi bilan shuhrat qozonishining boisi, Rumiylahning “Shamsi Tabriziylah”, taxallusini qo‘llashidadir. Jaloliddin Rumiylahning ilmiylah va adabiy merosi g‘oyat katta bo‘lib, o‘zidan keyingi avlodlarga beshta muhim va qimmatbaho asarlarini qoldirgan. Bular:

“Devoni kabir”, “Devoni Shamsi Tabriziylah”, “Devoni Shamsul Haqoyiq” degan nomlar bilan mashhur bo‘lgan, g‘azal va ruboiylardan iborat asar;

“Masnaviyi ma’naviy” nomli yigirma besh ming baytdan tashkil topgan bebaho axloqiy-tarbiyaviylah asar;

“Ichindagi ichindadir” (“Fiyhi ma fiyhi”) – Mavlononing suhbatlaridan iborat falsafiy-tarbiyaviylah asar;

“Mavoizi majolisi sab’a” – Rumiylahning yetti o‘git va pand-nasihatlarini qamrab olgan bebaho asar;

¹ Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд. –Т.: Фан, 2001. – Б. 327-328.

² Мавлоно Жалолиддин Румий. Методик-библиографик кўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 5.

“Maktubot” – Mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tuzilgan to‘plam kabi asarlardir.

Jaloliddin Rumiyning yana bir eng buyuk ilmiy merosi olti daftardan iborat tasavvufiy-falsafiy majmua bo‘lgan “Masnaviyi ma’naviy” asaridir. Ushbu shoh asar serma’no va jilodor baytlari sabab barcha kishilar qalbiga yo‘l topib borgan asardir. “Masnaviyi ma’naviy” qariyb o‘n yildan ko‘proq vaqt davomida yozilgan bo‘lib, Jaloliddin Rumi vafotidan oldin ya’ni, 1269-yilda yozib tugatilgan. “Masnaviyi ma’naviy” asarining buyukligi yana shundaki, bugungi kunga qadar mazkur memuariga bir yuz ellikdan ortiq sharhlar yozilgan.

“Masnaviyi ma’naviy” asarida mutafakkir Sharq xalqlari og‘zaki ijodining noyob durdonalaridan hikoyalar tarzida ko‘plab namunalar hamda, Qur’oni karim oyatlari va hadislardan sharhlar keltiradi. Rumi – “Eng buyuk haj bir ko‘ngilga yo‘l topib kirishdir. Bir ko‘ngil yuzlarcha ka’badan go‘zaldir. Ka’ba hazrati Ibrohimning binosi bo‘lsa, ko‘ngil Allohning nazargohidir” deydi. Bu tasavvufiy iboradan shunday falsafiy xulosa qilish mumkinki, insonning orzu qilgan haj ibodati bir nochor kimsaning hojatini chiqarish yoki bir ko‘ngilni shod etish bilan barobardir.

Jaloliddin Rumiyni ko‘pincha “Mavlon” deb atashgan va taxminan 1240-yilda asos solingan mavlaviya tariqatining nomi ham shundan olingan. “Mavlon” – atamasi ustozlarni ulug‘lab, ularning nomlariga qo‘shib ishlatilgan va hurmat ma’nosida shaxs nomidan avval qo‘llanilgan.

Yurtimizda yetishib chiqqan, islom olamida eng buyuk tasavvufshunos deb tan olingan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o‘z asarlarida mavlaviya tariqatiga ta’rif bergan¹.

Dastlab mavlaviya tariqati a’zolari tarkibi savdogarlar, bozor ahli, hunarmandlardan tashkil topgan bo‘lsada, asta-sekin tariqatning ijtimoiy tarkibiy ko‘rinishi o‘zgarib boy-badavlat kishilar sulukiga aylanib borgan. Usmonli sultonlarning ko‘pchiligi ham aynan mavlaviya tariqati bilan aloqador bo‘lganlar. Keyinchalik, mavlaviya tariqati Bag‘dod, Damashq, Qohira, Quddus, Kichik Osiyoda va qisman O‘rta Osiyoda ham keng tarqalgan.

Mavlaviya tariqati vakillari o‘z mavlaviyaxona va xonqohlariga ega bo‘lib, bu yerda zikru samo’ (tasavvufda Allohni yodga olish bilan bog‘liq marosim va unda ijro etiladigan musiqiy she’riy turkum) bilan shug‘ullanganlar. Boshqa tariqatlardan farqli o‘laroq, mavlaviyada jamoa bo‘lib, musiqa tinglash, kuylash va quloq yozib, gir aylanib, zikr tushish marosimiga alohida e’tibor berilgan. Shuning uchun, mavlaviya tariqati vakillari G‘arbda “gardi darvishlar” yoki “charx urib aylanuvchilar” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.

Dissertatsiyaning “**Bahouddin Naqshband ta’limotining g‘oyaviy - falsafiy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Bahouddin Naqshbandning Markaziy Osiyo tasavvufi va tariqatlari rivojida tutgan o‘rni hamda Naqshbandiya tariqati ta’limotining falsafiy-irfoniy ta’limot sifatida shakllanishi va rivojlanishi masalalari yoritilgan.

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тасаввув ҳақида тасаввур. – Тошкент: “Sharq”, 2012. – Б. 6 – 7.

Naqshbandiylik tariqatining asoschisi sanalgan Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) el orasida Bahouddin Balogardon, Xojai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhurdir. “Bahouddin” taxallusi esa dinni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun qilgan xizmatlari bois berilgan bo‘lib, ma’nosi dinning faxri, bebahosi demakdir. Shuningdek, asli ismi Muhammad bo‘lgan Bahouddin Naqshband “Baho ul Haq va din”¹, deb ham sharaflangan. Bahouddin Naqshband ismidagi “Naqshband” taxallusi ikki ma’noda talqin etilgan. Ya’ni, birida Bahouddin matoga naqsh solish hunari bilan shug‘ullanganligi uchun “Naqshband” deb atalgan bo‘lsa, ikkinchisida Bahouddin Naqshband “Allohni qalbiga naqsh qilib olgan edi” degan ma’nolarda ifodalangan. Bundan tashqari, “Shoh Naqshband” degan taxallus ham keng qo‘llanilgan.

Bahouddin Naqshband dastlab, Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Xalil ota, Mavlono Orif Deggaroniy, Qusam Shayx kabi ustozlardan saboq olgan. G‘aribona hayot kechirib kimxobga naqsh solish bilan shug‘ullangan. Bahouddin Naqshband o‘z ta’limotini yaratishda Abduxoliq G‘ijduvoniy asos solgan “Xojagon” silsilasining sakkiz tamoyildan iborat qoidasiga o‘zining uch qoidasi talabini qo‘shib, naqshbandiya tariqatini yanada mukammallikka yetkazgan.

Xoja Muhammad Boboi Samosiy Bahouddin Naqshbandga tarbiya bergan birinchi ustoz bo‘lib bu haqida Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida batafsil ma’lumot berilgan. Muhammad Boboi Samosiy Bahouddin tarbiyasini o‘zidan keyin Amir Kulolga topshirgan. Bahouddin Naqshband Amir Kuloldan so‘ng Mavlono Orif Deggaroniydan tasavvuf ilmini o‘rganganligi hamda yassaviya tariqatining vakili Xalil otadan ham o‘n ikki yil ta’lim olganligi e’tirof etiladi.

Bundan tashqari, manbalar va tadqiqotlarda Bahouddin Naqshbandning Uvays Qaraniy, Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy, Junayd Bag‘dodiy kabi tasavvuf namoyondalariga ma’naviy e’tiqod qilganligi hamda ikkinchi haj safari chog‘ida Sohibqiron Amir Temurning piri bo‘lgan Zayniddin Abubakr Toyobodiy bilan ham uchrashganligi bayon etilgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu allomalarning g‘oyalari bevosita naqshbandiya ta’limotining shakllanishida asosiy o‘rin egallagan.

Manbalarda, Bahouddin Naqshbandning uvaysiy ekanligi ta’kidlangan. XV-asr yozma manbasi bo‘lgan Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya” asarida Bahouddin Naqshband haqida: “Hazrat xojamizning yo‘llari uvaysiylik tariqasidandir” deb qayd etilgan. Uvaysiylik tasavvufdagi o‘ziga xos kamolot yo‘li bo‘lib, uning ma’nosi – avliyoullohlar (Xudoning do‘stlari) toifasidan bo‘lganligini bildiradi².

Bahouddin Naqshbandning muridlaridan bo‘lgan Ya’qub Charxiy o‘zining “Risolai unsiya” (Do‘stona suhbat) asarida qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan mazkur asarda: “Xoja Bahouddin Naqshband Xoja Muhammad Boboyi Samosiyning muridi bo‘lib, bevosita u kishining pirlari Xoja Romitaniy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Orif Revgariy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Ali

¹ Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Т.: Фан, 2007. – Б. 65.

² Хожа Муҳаммад Порсо “Рисолаи Қудсия”. Таржимон ва изоҳлар муаллифи А.Болтаев. – Тошкент: Moʻgʻarounnahr, 2020. – Б. 34-35.

Formadiy va Shayx Imom G‘azzoliy bo‘lganlar. Imom G‘azzoliy o‘z navbatida Imom Abulqosim Jurjoniyning murshidi bo‘lib, Abulqosim Jurjoniyni tasavvufda ikki yo‘nalishda ya‘ni, shayx Junayd va Abulxasan Xirqoniydan saboq olganlar. Abulxasan Xirqoniy esa sulton ul orifin, shayx Abu Yazd Bastomiyga murid bo‘lib, bevosita Abu Yazd Bastomiy esa Imom Ja‘fari Sodiqqa murid bo‘lishgan. Imom Ja‘fari Sodiq o‘zining otasi Imom Muhammad Boqirga murid bo‘lgan. Muhammad Boqir o‘zining otasi Imom Zaynolibiddinga, Imom Zaynolibiddin esa shahidlar sayyidi amirul mo‘minin Imom Huseynga o‘z navbatida Imom Huseyn amirul mo‘minin Ali ibn Abu Tolibga va Ali ibn Abu Tolib orqali Muhammad payg‘ambarga murid bo‘lishgan.

Imom Ja‘far ilmi botin sabog‘ini o‘zining ota va onasi avlodlari bo‘lgan Qosim ibn Muhammad ibn Abubakrdan olgan. Qosim ibn Muhammad buyuk tobe‘inlardan bo‘lib, bir ma‘lumotda Abu Bakri Siddiqqa boshqa ma‘lumotda esa Salmoni Forsiyga murid bo‘lganligi e‘tirof etilgan.

Shundan xulosa qilish mumkinki, bizning xojamizga (Bahouddin Naqshbandga) ilm to‘rt yo‘nalishda kelgan. Ya‘ni:

birinchisi Hazrati Xoja Xizrdan;

ikkinchisi Hazrati shayx Junayddan;

uchinchisi Hazrati sulton ul orifin sulton Boyazid Bastomiy orqali amir ul mo‘minin Ali ibn Abu Tolibdan;

to‘rtinchisi Imom Ja‘fari Sodiq orqali Hazrati Abu Bakri Siddiqdan kelgan, va shu sababdan ham Hazratni shayxlarning buyugi deyishgan”¹, deb iqtibos keltirilgan.

Bahouddin Naqshband umr bo‘yi dehqonchilik bilan kun kechirgan. Shuningdek, butun umrini faqirlikda o‘tkazgan Bahouddin Naqshband, ushbu tariqatning asl aqidasi bo‘lmish “Dast-ba koru dil ba yor” ya‘ni, doimo ko‘ngling ishda ko‘ngling Allohda bo‘lsin”, degan g‘oyani ilgari surgan. Bahouddin Naqshband o‘z mehnati, kuchi bilan kun ko‘rishni yoqtirgan, ishlab topgan mol-mulkini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in‘om etgan. Ushbu sababdan Bahouddin Naqshband va naqshbandiya ta‘limotida zohidlik, tarki dunyochilikka da‘vat etish kuzatilmagan.

Naqshbandiya tariqati va tariqat izdoshlari xalq bilan muloqotda bo‘lib, kundalik mehnatdan voz kechmaganlar. Aniqrog‘i, naqshbandiya tariqatida tarki dunyochilikning yo‘qligi uning o‘ziga xos belgisi sanalgan. Naqshbandiya tariqati tarafdorlari kishilarni savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, musiqa, ilm-ma‘rifat, xattotlik, naqqoshlik kabi barcha foydali va xayrli ishlar bilan shug‘ullanishga da‘vat etganlar. Shuning uchun ham o‘z davrining yirik namoyondalari bo‘lmish Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar mutafakkirlar naqshbandiya ta‘limoti yo‘lini tanlaganlar. Bahouddin Naqshbandning deyarli barcha kalomlari insonparvarlik ruhida

¹ Яъкуб Чархий “Рисолаи Унсия” (Дўстона суҳбат). Изоҳлар муаллифи С.Рахмонов. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022. – Б. 16.

sugʻorilgan. “Maqomot”da yozilishicha, Bahouddindan bir kishi, “Nega xizmatkor yollamaysiz?” deb soʻraganda “Qullik xojalik bilan mos kelmaydi”¹ deb aytgan.

Naqshbandiya tariqatining Bahouddin Naqshbanddan keyingi yirik xalifalari Alouddin Attor, Muhammad Porso, Alouddin Gʻijduvoni, Yaʼqub Charxiy va Xoja Ahror Valiylar boʻlishgan.

Abdulxoliq Gʻijduvoni naqshbandiya tariqatida xojalar silsilasining asoschisi sanalgan. Xojagon-naqshbandiya tariqatining olti yirik piri murshidi – Abdulxoliq Gʻijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fagʻnaviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboi Samosiy, Amir Kulol bilan birga naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband hozirgi kungacha musulmon olamida “Yetti Pir” nomi bilan mashhurdirlar.

Shayx Yusuf Hamadoni shogirdi Abdulxoliq Gʻijduvoni tomonidan Xojagon Naqshbandiya tariqatiga sakkiz rashhaning kiritilishiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Keyinchalik, mazkur qoidalarga Bahouddin Naqshband tomonidan uchta qoida (rashha) qoʻshilib, naqshbandiya tariqatining yaxlit nazariy tizim tamoyili shakllantirilgan.

Har bir solik maʼnaviy fayz olish uchun naqshbandiya tariqatining mazkur oʻn bir asosiga amal qilishi lozim:

(Yusuf Hamadoni tomonidan asoslangan toʻrt tamoyillar:)

1. Xush dar dam: Har bir nafas olish va chiqarishda ogoh boʻlish;
2. Nazar bar qadam: Qadamlarini nazorat qilib yurishi, nooʻrin qarashlardan ehtiyot boʻlish va oʻzini saqlash;

3. Safar dar vatan: Har qadamda asl maqsadga – Haq tomonga yurish.

4. Xilvat dar anjuman: Zohiran xalq bilan botinan haq bilan boʻlish;

(Abdulxoliq Gʻijduvoni tomonidan asoslangan toʻrt tamoyillar:)

5. Yodkard: Nafas chiqarmasdan (nafasni yutib) qalb va til bilan tavhid zikrini jamlab aytish;

6. Bozgasht: Maqsudning faqat Haq rizosi uchun ekanligini bilish;

7. Nigohdosht: Qalbni xavotirdan saqlash;

8. Yoddosht: Har nafasda Alloh bilan boʻlish.

(Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan uch tamoyillar:)

9. Vuqufi zamoni: Har bir lahzasini hisob-kitob qilish va qadrlash;

10. Vuqufi adadiy: Zikrda sanoqqa rioya qilish;

11. Vuqufi qalbiy: Qalbni “Alloh” zikri, fikri va amri bilan band qilish, qalb holatidan ogoh boʻlish kabi tamoyillardir.

Xojagon-naqshbandiya taʼlimotining asosini tashkil etuvchi mazkur rashhalar yaʼni, tomchilar oʻziga xos tamoyillar hisoblanib har bir solik oʻz amaliyotida ularni qoʻllashi lozimligi qayd etilgan.

Naqshbandiyada har bir kishi alohida xufiy zikr bilan shugʻullanib, maʼlum kunlarda birgalikda suhbatda yigʻiladilar. Naqshbandiya tariqatidagi koʻpchilik bilan qilinadigan zikr “Xatmi Xojagon” deyiladi. Naqshbandiya tariqati tamoyiliga koʻra tariqatga kirgan tolib tavba qilishi, shariatga zid bidʼatlardan qochishi,

¹ Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир Ибн Муҳаммад Али. Мақомати Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. – Тошкент: Ёзувчи, 1993. – Б. 56.

taqvoni kuchaytirishga amal qilishi, zulm va nohaqlik qilmasligi, qarzini to‘lashi, rozilik so‘rashi, qazo namozlarini o‘qishi va Tangrini har lahzada zikr qilishi lozim. Naqshbandiya tariqati quyidagi to‘rt asos ustiga qurilgan:

1. Shariat bilan zohirni poklash;
2. Tariqat bilan botinni poklash;
3. Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq;
4. Ma’rifat ila Allohga erishish shular jumlasidandir.

Manbalarga ko‘ra, xojagon-naqshbandiya tariqati Abduxoliq G‘ijduvoniya qadar zikri jahriy ya’ni, baland ovozda zikr qilish qo‘llanilgan. Aynan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy zikrni xufiy shaklda olib borishni tavsiya qilib, ushbu uslubni afzal va shariatga muvofiqroq deb qo‘llagandan keyin, zikri xufiy xojalar silsilasi va naqshbandiya tariqatining asoslaridan biriga aylangan.

Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyoda Amir Temurning mo‘g‘ullar iste’losiga qarshi kurashi, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma’naviy rivojlanishni ta’minlashga intilishida, temuriylar davri renessansining vujudga kelishida ulkan hissa qo‘shgan.

Markaziy Osiyo hududida keng tarqalib, yassaviya tariqatidan ham kuchliroq nufuzga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqati XV-asrdan boshlab, Hindiston va Istanbulga yoyilgan. Manbalarga ko‘ra, naqshbandiya tariqati XVIII-asrda Mavlono Xolid Bag‘dodiyning sa’yi harakatlari natijasida Turkiya davlatida keng tarqalib eng faol harakatga aylangan. Bugungi kunda Istanbulning o‘zida 65 ta naqshbandiya dargohlarining mavjudligi, mazkur tariqatning keng tarqalganligidan dalolatdir.

Dissertatsiyaning **“Amir Temur va temuriylar davrida naqshbandiya tariqatining rivoji”** deb nomlangan uchinchi bobida Amir Temur saltanatida tasavvuf ta’limoti va naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati, Amir Temur va temuriylarning tasavvuf ta’limoti va naqshbandiya tariqatiga munosabati hamda naqshbandiya tariqati namoyondalarining Jaloliddin Rumiy ta’limotiga munosabati masalalari yoritilgan.

Amir Temurning tariqat vakillariga hurmat ko‘rsatishi va Movarounnahrning ilmiy-diniy markazga aylantirganligi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham tasdiqlagan¹. XIV-XV-asrlarda islom dini mafkurasi Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan davlat barpo etilishiga yordam bergan. Amir Temur, Ulug‘bek, Shohruh, Husayn Boyqaro kabi temuriyzodalar ham islom diniga tayanib, davlatni idora qilganlar, mamlakat qudratini oshirish uchun undan oqilona foydalanganlar. Shuningdek, ushbu temuriy shahzodalar davlatni boshqarishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda, tasavvuf va tariqat qoidalariga amal qilishda Amir Temur an’analarini izchil davom ettirganlar. Temuriylar davrida naqshbandiya tariqati keng tarqalib, o‘z mavqeyini mustahkamlab borgan. Xususan, Xoja Ahror Valiy va Maxdumi A’zam Kosoniy kabi naqshbandiya tariqatining yirik namoyondalari temuriy shahzodalar orasida siyosiy nizolarning avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat barqarorligi va yurt tinchligini saqlash maqsadida hukmdorlarga yaqindan yordam berganlar.

¹ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: О‘qituvchi, 2008. – Б. 135.

Ushbu ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, temuriy shahzodalarning tasavvufga ijobiy munosabatda bo'lganligining asosiy sabablaridan biri avvalo ularning o'zlari keng fikrli, ma'rifatparvar, komil kishilar bo'lganliklaridadir. Temuriylarning o'zlari ilmi, ma'rifatli bo'lganliklari sababli ham ularning saroylarida ilm-fan, adabiyot va san'at ahli aslo arimagan.

Temuriylar davrida naqshbandiya ta'limoti keng yoyilgan edi. Bu ta'limot rasmiy davlat mafkurasi deb tanilgan. Naqshbandiya ta'limotining XV-asrdagi eng ko'zga ko'ringan murshidlari Abdurahmon Jomiy va Xoja Ubaydulloh Ahror bo'lgan. Bu ta'limotni keng targ'ib etgan va unga amal qilganlar orasida o'sha davrning ko'zga ko'ringan arboblari Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zotlar bo'lganlar.

Xoja Ubaydulloh Ahror Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdi bo'lgan Ya'qub Charxiyga murshid bo'lib, undan naqshbandiya tariqati asoslarini o'rgangan. Keyinchalik, Xoja Ubaydulloh Ahror naqshbandiya tariqatining yirik arbobi, Bahouddin Naqshband ta'limotining davomchisi sifatida shuhrat qozongan. Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyning ilmiy merosidan bizgacha "Faqarot ul-orifin" ("Oriflar so'zlaridan parchalar" yoki "Fuqroti Ahroriya" deb ham nomlanadi), "Volidiya" hamda "Havroiyya" ("Hurlar" yoki "Farishtalar") deb nomlangan asarlari yetib kelgan.

Xoja Ahror Valiy o'zining serqirra ijodida Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlaridan ham keng foydalangan. Aniqrog'i, Xoja Ahror Valiyning Mavlono Jaloliddin Rumiy ta'limotiga munosabati Xoja Ahror to'g'risida xolis ma'lumot beruvchi manba sanalgan Faxruddin Ali Safiyning "Rashahot ayn al-hayot" (Obi hayot tomchilari) asarida batafsil keltirilgan¹. Mazkur asarda Xoja Ahror Valiy tomonidan "hayot beruvchi tomchilar" deb e'tirof etilgan sakkizta "rashha"larda Mavlono Jaloliddin Rumiyning ismi qayd etilgan. Shu bilan birga Jaloliddin Rumiy va Shams Tabriziy borasida shunday bayt aytilgan:

Bayt:

Hech chiz az peshi xud chize nashud,
Hech ohan xanjari teze nashud.
Hech Mavlono nashud Mavloi Rum,
To, ki peshi Shams Tabrizi nashud.

Tarjimasi:

Hech narsa o'z-o'zidan bir bor bo'lmadi,
Temir ham to'satdan shamshir bo'lmadi.
Hech Mavlono ham bo'lmadi Mavloi Rum,
Toki Shams Tabriziy sari kelmadi.

Shunindek, "Masnaviyi ma'naviy" asarida keltirilgan g'oya va misralarni Xoja Ahror asarlarida ham uchratish mumkin. Xoja Ahror Jaloliddin Rumiy masnaviysidagi misralar mohiyatni o'z asarida tahlil etib, "haqiqiy inson bandalik maqomida bo'lib, faqat Haq bilan bog'lanadi, boshqasiga yo'qlik nazari bilan qaraydi, ya'ni boshqa narsalarni ham asl mohiyati ilohiy ekanligi, ular inson uchun yaralganini tushunib, shirkdan saqlanadi" deb e'tirof etadi.

¹ Фахруддин Али Сафий. Рашахот айн ал-хаёт. (Обихаёт томчилари). - Т.: Абу Али Ибн Сино. – Б. 536.

Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniy g‘oyalar va fazilatlarini ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o‘rtasida futuvvat - javonmardlik rishtalarini paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Buning ortida kishilar bir-birlariga moddiy va ma‘naviy yordam bera boshlaganlar, hayotdagi qiyinchilikni hamjihatlikda yengib o‘tib, shodliklarni ham birga baham ko‘rganlar. Bularning barchasi Bahouddin Naqshband jamiyatda barpo qilmoqchi bo‘lgan birodarlik, birdamlikning aynan o‘zi edi. Uning “qalbing Allohda bo‘lsin, qo‘ling mehnatda”, degan o‘g‘itlari insonlarda dinga, dindor va tariqatchi so‘fiylarga esa mehnatga nisbatan e‘tiborda aytilgan. Bu o‘z navbatida, odamlar turmush tarzining ko‘tarilishiga ham xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning “**Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband irfoniy-falsafiy qarashlarining ma‘naviy-axloqiy ahamiyati (qiyosiy-falsafiy tahlil)**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Jaloliddin Rumiyning “Maktubot” va Ya‘qub Charxiyning “Risoi unsiya” asarlarining qisqacha bayoni, Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband ta‘limotlarida axloqiy tarbiya va nafsni tiyish masalasidagi umumiylik va xususiylik hamda Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband ma‘naviy merosining zamonaviy yoshlar tarbiyasiga ta‘siri masalalari yoritilgan.

Tariqatlarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganganda mavlaviya va naqshbandiya tariqatlari nazariy jihatdan faqat zikrda farq qilsada, amalda komil insonni tarbiyalashni targ‘ib qilgan va umumbashariyat tan olgan tariqatlardir.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Maktubot” asari hali o‘zbek tiliga mukammal tarjima qilinmagan asar bo‘lib, bizning qo‘limizdagi forsiy tilda yozilgan nusxasi avval Istanbulda chop etilib, keyin 1956-yilda Yusuf Jamshedipur hamda G‘ulomhusayn Amin tomonidan Tehronda qayta nashr ettirilgan nusxasidir. Mazkur asarda Jaloliddin Rumi 162 nafar shaxsni tilga olgan bo‘lib, yetti nafar ayollar ismi ya‘ni, Bakumoch Xotun, Sunbula Xotun, Gavhar Xotun, Latifa Xotun, Malika Xotun, Malak Xotun, Nusrat Xotunlarning ismlari zikr etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotlarimizda shu narsani aniqladikki, “Maktubot” asari dastavval maktublar ko‘rinishida bo‘lib, Jaloliddin Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad tomonidan mutasavvif olimning vafotidan yigirma yil o‘tib, hijriy 690-yilning rabi‘ul-avval oyida (1291-yilda) jamlangan va asar holiga keltirilgan¹. Ushbu ma‘lumotlar “Maktubot” asarning kirish qismida bayon etilgan.

Shuningdek, mazkur asarning “Muqaddima” deb nomlangan qismida Mavlono Jaloliddin Rumiyning asarlari xususida tazkiranavislar va tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan ma‘lumotlar hamda Rumiyning to‘ng‘ich o‘g‘li Bahouddin Valad tomonidan yozilgan “Masnaviy Valadiya” xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijodi, Shams Tabriziyni uchratgani va barcha voqealar rivoji ham batafsil bayon etilgan. Ushbu ma‘lumotlar dissertatsiyaning mazkur bobida yoritilgan. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Maktubot” asari hijriy qamariy 1352-yili Istanbul shahridagi “Subot”

توبات مولانا جلال الدين رومی، بکوشش یوسف جمشیدی پور و غلامحسین امین، بنگاه مطبوعاتی پاینده. تهران- ۱۹۵۶ میلادی
Жалоліддин Румий “Мактубот”. Юсуф Жамшедий пур ва Фуломхусайн Амин томонидан нашрга тайёрланган. – Техрон: Поянда матбуот уйи, 1956.

nashriyotida turkiyalik mashhur inson Janobi Doktor Faridun Nofizbek tomonidan nashr etilgan. Ushbu kitobda keltirilgan maktublar soni 144 tadan iborat bo‘lib, bu Rumiyning yozgan barcha maktublarining sonidan ancha kam ekanligi ko‘rsatadi.

Mazkur maktublarning aksariyati o‘zining muridlari va ehtiyojmandlari uchun yozilgan bo‘lib, asosan maktublarning deyarli barchasida ma‘rifat va tariqatga oid fikrlar keltirilgan. Barcha maktublar “Allohu miftohul bavob” (Alloh eshiklarning kalitidir) yoki “Allohu yajma‘ul baynana” iboralari bilan boshlanadi. Shuningdek, mazkur asarda istisno tariqasida bo‘lgan bir nechta tasavvufiy maktublar ham mavjuddir. Qolgan maktublar esa asosan ko‘plab takalluflar, laqablar va turli unvonlarning zikriga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni tashxis etish (aniqlash) mushkuldir.

Maktubotda keltirilgan chiroyli forscha va arabcha she‘rlar, oyatlar va hadislar ushbu asarning qimmatini yanada oshirgan. Hatto, ba‘zi joylarda “narsi musajja” ya‘ni qofiyali va vaznli nasr ham keltirilgan bo‘lib, bu esa iboralarning chiroyliligini oshirgan. Qofiya va vaznga ega bo‘lgan nasriy asarlar Qur‘on uslubidagi asar hisoblanib, “Maktubot”ning Qur‘oniga o‘xshash jihatlaridan biri ham shundadir.

“Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, ushbu kitobni nashrga tayyorlaganlarning o‘zlari ilm o‘rganuvchi-tadqiqotchilar bo‘lib, ushbu kitobni buyuk ustozlarning tadqiqotlaridan foydalangan holda, iqtiboslar keltirib yozganlar. Chunki, birinchi navbatda qimmatli so‘zlarni boshqalardan to‘g‘ri tahlil etish muhimdir. Ushbu kitobning tadqiqi va tablig‘oti ilm arbobiga ma‘qul bo‘lgan bo‘lsa uning savobi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bu yo‘lda zahmat chekkan fozilu olimlarga yetadi, biz esa ularning xirmonlaridan xo‘sha teruvchilarmiz. Agar bu kitobda biron bir xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa uning gunohi bizning bo‘ynimizdadir, Tehron – Xurdod oyi (21-may – 21-iyun) hijriy 1336-yil”¹, deb eronlik Yusuf Jamshedipur va G‘ulomhusayn Amin tomonidan nusxa ko‘chirilganligi qayd etilgan.

Ya‘qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy (1363-1447) tomonidan yozilgan “Risolai unsiya” (“Do‘stona suhbat risolasi”) asarining pokistonlik Muhammad Nazir tomonidan ko‘chirilgan nusxasini tadqiqotlarimiz davomida o‘zbek tiliga tarjima qilishga erishdik. Mazkur asar 116 sahifadan iborat bo‘lib, forsiy va urdu tillarida yozilgan.

Asar mundarijasi quyidagicha:

Kirish: (urdu tilida)

Taqriz (urdu tilida)

“Risolai unsiya” (*fors tilida*)

“Doimiy ravishda pok yurish fazilati xususida” (*fors tilida*)

“Qalbni shod qilguvchi zikri xufiya fazilati xususida” (*fors tilida*)

“Zikr haqida Fasl” (*fors tilida*)

“Nafl namozlari borasidagi fasl” (*fors tilida*)

“Xotima” (*fors tilida*)

توبات مولانا جلال الدين رومی، بکوشش یوسف جمشیدی پور و غلامحسین امین، بنگاه مطبوعاتی پاینده، تهران- ۱۹۵۶ میلادی¹

Жалолиддин Румий “Мактубот”. Юсуф Жамшедий пур ва Гуломхусайн Мин томонидан нашрга тайёрланган. – Техрон: Поянда матбуот уйи, 1956.

Ya'qub Charxiy to'g'risida ma'lumot (urdu tilida)

“Risolai unsiya” fasllari (urdu tilida)

“Risolai unsiya”da tilga olingan ulug' shayxlar to'g'risida ma'lumot (*fors tilida*)

Xotima (urdu tilida)

Manbalardan (*fors tilida*) iboratdir. Biz mazkur manbaning forsiy va urdu tillarda yozilgan qismlari aynan bir xil bo'lganligi sabab, faqat forsiy tildagi qismlarini tarjima qildik.

Ya'qub Charxiyning ushbu asari asosan, o'zining ustozlari bo'lgan naqshbandiya tariqati namoyondasi shayx Bahouddin Naqshband sifatleri va u kishidan eshitgan tasavvufiy hikmatlar, Xoja Alouddin Attor so'zlari va Jaloliddin Rumi baytlaridan foydalanilgan holda yozilgan. Bundan tashqari, mazkur asarda Xoja Ali Romitaniy, XII-asrda yashagan shoir va alloma Hakim Sanoiy taxallusi bilan ijod qilgan Abdulmajid Majdud binni Odam Sanoiy G'aznaviy, faylasuf va shoir Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad Hiraviy (1006-1088) kabi mutafakkirlarning aytgan ma'naviy-axloqiy o'g'itlaridan iqtiboslar keltirilgan.

Asarda yigirma o'rinda ikki va to'rt misralik forsiy she'riy nazmlar va to'qson o'rinda arabiy jumlarlar, Qur'on oyatlari va hadislar qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur asar so'ngida asarda ismlari tilga olingan o'ttiz bir nafar islom dini va tariqat vakillarining ulug' shayxlari to'g'risida qisqacha ma'lumot hamda, asarda foydalanilgan o'n to'rtta manbalarning nomlari ham keltirib o'tilgan.

Umuman olganda, Jaloliddin Rumiyning “Maktubot” hamda Ya'qub Charxiyning “Risolai Unsiya” asarlari buyuk ustozlar qolaversa tasavvufiy tariqatlar silsilasi va tarixiga bag'ishlangan, tasavvufiy tariqatlarning nozik jihatlari ochib berishga xizmat qiladigan manbalardir. Ushbu asarlarning bugungi kundagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir.

Jaloliddin Rumiyning fikriga ko'ra, inson o'z nafsini orqali hamma ko'rguliklarga giriftor bo'ladi. Ammo, nafs tufayli inson ko'ngilda paydo bo'lguvchi ishtiyoq uni shaytonning qarmog'iga ilinishga undaydi. Inson nafsning g'ulg'ula, chorlovidan qutulmas ekan albatta o'ljaga aylanadi. “Qarmoqni uzib qochish” kam nasib qiluvchi toledir. Nafsga qul bo'lishning oqibati muqarrar o'limdir. Undan sabr tufayli xalos bo'lish mumkin. Zero, sabr qilguvchilar Yaratganga yaqindirlar. *Bayt:*

Donni ko'rgan qush baland tom uzradir,

Ul qanot yozgay, vale dom uzradir¹.

Qush donni ko'rgach, past-balandni, xavf-xatarni unutadi. Olisdan ko'ziga shodlik va quvonch baxsh etayotgan don qush hayotini poyoniga yetkazishidan bexabar. Shuningdek, “don” molu-dunyo, hirsu-g'aflat va imon yo'lidagi xatarnok tuzoqdir. *Bayt:*

Talpinursan davlatu izzat sari,

Senga Azroil degaykim, kel beri!²

¹ Жалололидин Румий. Най ноласи: Ҳикматлар. Насрий матн муаллифи Хайрулло Қосимов. - Тошкент: Yurist-media markazi, 2011. – Б. 9.

² Жалололидин Румий. Най ноласи: Ҳикматлар. Насрий матн муаллифи Хайрулло Қосимов. - Тошкент: Yurist-media markazi, 2011. – Б. 114.

Inson nafsni yo'lida orzu-havaslarini o'ylab boylikka intiladi. Maqsadi yo'lida jonini qiynab, ne mashaqqatga ro'baro' bo'lsa-da, har qanday yo'l bilan istiqbolga talpinadi. Natijada, orzulariga yetishganida nogoh ajal farishtasi uni o'ziga chorlaydi. Shundaygina inson aziz umrini yelga sovurganini anglaydi. Mansabi va molu dunyosi endi uni ranju balolardan qutqara olmaydi. *Bayt:*

*Yuz qarolik otash ichra gar nihon,
O't yonib bitganda bo'lgaydir ayon.*

Nafsning eng og'ir ko'rinishi hirsdir. Hirs kuch olganda har narsa jozibali, totli, rohatbaxsh tuyuladi. Masalan, garchand, olovda tillodek ko'zni olguvchi yarqiroqlik paydo bo'lsa ham, oqibatda yonib bitgan ko'mirdan kul qoladi. "Shunday ekan, inson bolasi yodingda tut: Olam senga musaxxar bo'lsa ham fursat kelganda ajal sharobini ichguvchisan"¹, – deya ta'kidlaydi Mavlono:

Bahouddin Naqshband ta'limoti va naqshbandiya rashhalarida ham asosiy e'tibor nafsni jilovlash, qalb tarbiyasi, nafsni boshqarish va me'yorga solish kabi tamoyillarga qaratilgan. Bahouddin Naqshband inson o'z nafsining tarbiyasini mukammal cho'qqisiga yetsa komili mukammallik darajasiga yetishini aytgan.

Bahouddin Naqshband inson o'z nafsiga hokim bo'lishi, uni tarbiyalashi va barcha kuch-g'ayratini ezgulik tomon sarflashi lozimligini uqtiradi. Halol luqma masalasiga alohida to'xtalib, halol mehnat qilishni tavsiya etadi.

Naqshbandiya tariqatiga ko'ra nafsning quyidagi turlari mavjud:

1. Nafsi ammora – yomonlikka buyuruvchi nafs. Nafsning yomonlikka undovchi ekanligi Qur'oni karimning oyatlarida ham keltirilgan.

2. Nafsi lavvoma – xatoyu-kamchiliklarini anglay boshlab, o'zini tanqid qiluvchi nafs.

3. Nafsi mulhama – ma'naviy hayotning ba'zi go'zalliklarini sezib, Allohdan ilhomlar olib turuvchi nafs.

4. Nafsi mutmainna – taskin topgan nafs.

5. Nafsi roziya – Parvardigorning bergan ne'matlariga rozi bo'luvchi nafs.

6. Nafsi marziya – Bunday nafsga erishgan kishi Allohning sevgan bandasiga aylanadi.

7. Nafsi sofiya – Payg'ambarlarga xos bo'lgan nafsdur.

Bahouddin Naqshband eng yomon nafs turi nafsni ammora ekanligini ta'kidlab, inson nafs tarbiyasida nafsni lavvomadan mulhamaga, undan mutma'inaga, undan marziya va nafsni roziya tomon bosqichma-bosqich o'tib, o'zini tarbiyalashi lozimligini uqtiradi. Asosiy maqsad esa nafsni roziyaga ya'ni, Alloh bergan rizq va taqdirga rozi bo'lib, nafsni sofiya ya'ni ilohiy pok nafs darajasiga erishishdir. Shuning uchun, Bahouddin Naqshband ta'limoti adashgan va xato qilib g'aflatda qolgan hamda nafs quliga aylangan insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash, ogohlik maqomiga yetishishga yordam berib, kamolot yo'lini ko'rsatishga olib boruvchi ta'limot sifatida e'tirof etilgan.

Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra, tavba yo'lini tanlagan kishi nafs balosidan qutuladi. Ya'ni, doimiy qalbi zikr bilan band bo'lib, qo'li mehnatda bo'ladi. Behuda uxlash, behuda gapirish va behuda yeyishdan tiyiladi. Bu esa kishini

¹ Ўша манба. – Б 14.

jismoniy va ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Bahouddin Naqshband ta'limotiga ko'ra, nafs istaklariga bog'lanish inson ibodatlarining samarasini kamaytiradi. Zero, insonning "nafsi ammora"si Haq yo'liga borayotgan kishiga aziyat beradi.

Nafs – botin istaklari asosida vujudga keladi. Chunki, yaratganning eng buyuk mo'jizalaridan sanalgan tanasi, insonga emas balki ko'proq nafs istaklariga bo'ysunadi. Agar inson umrini nafs istaklarini bajarishga bag'ishlasa yaratganning emas nafsining quliga aylanadi. Shuning uchun, Bahouddin Naqshband "Kam yegin, kam gapir va kam uxla", "Hoyu havas va nafs ahllari tutgan ishlarining barchasi zalolatdan, ya'ni, adashishdan iboratdir" deb, ta'kidlagan. Nafsga erk berish va nafsga qarshi kurashmaslik nodonlikdir. Inson nafs ehtiyojlarini me'yorida qondirib, nafs uchun emas, ezgu amallarni bajarish uchun doimo harakatda bo'lmog'i lozim.

Naqshbandiya ta'limotida ham Haqni unutmagan holda halol mehnat qilish ya'ni, "Dil ba yoru dast ba kor" shiori ostida nafs tarbiyasiga erishish tariqat ahlini tekinox'rlikdan saqlab, halol mehnat qilish va halol luqma topishga undash tamoyili yotadi. Alloh insonni juda go'zal va mukammal qilib yaratgan. Shuning uchun, Bahouddin Naqshband inson vujudini "ilohiy xazina", deb baholaydi:

Bayt:

*Zeri devori vujudi tu buvad ganji guhar,
Ganj zohir shavad gar zi miyon barxezi¹.*

Tarjimasi:

*Vujud dyevoring ostida bordir gavhar xazinasi,
Sen o'rtadan ketgan mahal ko'rinadi barchasi².*

Ushbu misralarda "Sen o'rtadan ketsang ya'ni, nafs istaklaridan voz kechsang, vujudingdagi xazinalar oshkor bo'ladi" deyilmoqda. Nafsi ammorani yenga olgan inson ilohiy sifatlar bilan bezanib, zohiran kichik olam bo'lsada, botinan ilohiy nur va fayzga burkanib ulug' olamga aylanadi. Bu ham nafs ammorani yenga olgan insonga nisbatan aytilgandir.

Dunyoga, boylikka mehr qo'yish, ochko'zlik va tubanlikga olib borib, insonni nafsiga qul qilib qo'yadi. Tasavvufiy tariqatlar ta'limotidan boxabar kishi nafs qutqusini rad etib komillik sari intiladi.

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ta'limotlarida nafs barcha razolat, va ma'naviy halokatlarning sababchisi sanalib, insonni tubanlik botqog'iga yetaklashi go'zal tarzda ifodalangan. Ushbu illatlaridan forig' bo'lishning aniqrog'i nafs yo'lini yengib o'tishning yo'llari ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham, Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning hayot yo'li bugungi kunda insoniyat uchun ibrat timsolidir.

Nafsni yengish oson kechmaydi va bu riyozat chekish orqali amalga oshiriladi. Haq yo'lida o'z oldiga nafsni yengishdek ulug' bir maqsadni qo'yib uni amalga oshira olgan kishi komillik maqomiga davogar kishilardan sanaladi. Qiyinchiliklarni zimmasiga olish va maqsad sari intilish riyozatning ko'rinishlari bo'lib, bunda inson qalbi sayqallanadi.

¹ Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. - Тошкент: "O'zbekiston", 2019. – Б. 152.

² Г.Наврўзова. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 31.

Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ta'limotlari va boy ma'naviy merosini puxta o'rganish hamda ularning tasavvufiy-irfoniy qarashlarini yosh avlodga singdirish milliy va diniy qadriyatlarining asl mohiyatini saqlab qolishga, barkamol inson sifatida yurt koriga yaraydigan va yurtim deb yonib yashaydigan vatanparvar yoshlar jamoasining shakllanishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Dissertatsiya bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jaloliddin Rumiy ilmiy merosida turli axloqiy tarbiya tamoyillari va ilm ahliga berilgan tavsiyalar o'z ifodasini topgan bo'lib, Rumiy ta'limoti ma'nau yuksak bo'lgan komil insonni tarbiyalashga xizmat qilgan. Shuningdek, alloma asarlarida insonlarga tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikda yashash, o'z manfaatlarini yo'lida biror jonzotga ozor yetkazmaslik, komil inson sifatida namuna bo'lish targ'ib qilingan.

2. Jaloliddin Rumiy ta'limoti inson, umr, xudo va tabiat haqidagi savollarga javob berishi bilan birga inson ma'naviyatini shakllantirishga ham katta ahamiyat berilgan. Shuning uchun, Jaloliddin Rumiy asarlarida tasvirlangan voqealar insonni jamiyatdagi o'z o'rnini yanada chuqurroq anglashga chorlaydi.

3. Mavlaviylik tariqatida tasavvuf doirasiga kuy-ko'shiq, musiqa, hatto raqs tushish kabi rasm-rusumlarning kiritilishi etnik, til, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan turlicha bo'lgan xalqlar tomonidan tasavvuf g'oyalarining qabul qilinishi va etnomadaniy jihatdan tasavvufning keng yoyilishiga zamin yaratgan.

4. Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshbandning komil insonni tarbiyalash borasidagi ma'naviy-axloqiy qarashlar va pand-nasihatlari nafaqat o'z davrining balki bugungi kun kishisi uchun ham namunadir.

5. XIV-asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan xojagon-naqshbandiya tariqati ko'plab tariqatlardagi mushtarak unsurlarni o'zida aks ettirib, mumtoz tariqatlarning biriga aylangan. Natijada, naqshbandiya tariqatida komil insonni tarbiyalash borasida o'ziga xos uslub va qoidalardan foydalanilgan.

6. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l siltamay turib ham Ollohga mukammal itoat etish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minlagan.

7. Amir Temur xojagon-naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-ma'naviy muhiti mavjud bo'lgan davrda dunyoga kelgan va tasavvufiy tariqatlarning rivojiga xizmat qilgan sarkardadir. Shuning uchun ham XIV-XV-asrlarda tariqat namoyondalari ijtimoiy hayotning deyarli barcha tarmoqlarida faoliyat yuritganlar. Temuriy shahzodalar ham aksariyat tariqat namoyondalarini davlat ishlarida maslahat kengashiga qabul qilganlar. Natijada naqshbandiya tariqatining nufuzi oshib borgan.

8. Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband ta'limotlaridagi axloqiy qarashlarning zamonaviy yoshlar tarbiyasiga ta'siri, ularning yuksak ma'naviy-ruhiy va insoniy fazilatlar bilan ziynatlanishi, tinchliksevarlik g'oyalarini targ'ib qilib insoniylik burchini sadoqat bilan ado etadigan komil inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

9. Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband qarashlaridagi hayotbaxsh va insonparvarona ta'limotlar mamlakatimizda istiqomat qiladigan turli millat vakillari orasida do'stlik, totuvlik, o'zaro hamjihatlikni shakllantirib, yagona ona Vatanga muhabbat tuyg'usini tarannum etishda ilmiy-nazariy g'oya sifatida xizmat qiladi.

10. Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlaridagi g'oyalarining yoshlarning ma'naviy kamoloti va ruhan tarbiyalanishidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ayniqsa, hozirgi davrda davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilgan "halollik vaksinasi"ni yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashda ushbu allomalar ta'limotining g'oyaviy-ma'naviy ta'siri beqiyos bo'lib, ayniqsa nafs tarbiyasi to'g'risidagi tasavvufiy qarashlari ulkan tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan xulosalarga tayanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband tarixiy merosini targ'ibot qiluvchi milliy "veb-saytlar", yoki elektron kutubxonalar va mobil dasturlar platformasini yaratish lozim;

2. Yoshlar ayniqsa, talaba yoshlarning ma'naviy-ruhiy barqarorligini yuksaltirish maqsadida "Tasavvuf falsafasi" va "Qiyosiy tasavvufshunoslik" fanlarini asosiy fan sifatida o'quv jarayoniga kiritish kerak;

3. Tasavvufiy tariqatlar ta'limoti va ularda aks ettirilgan axloqiy-tarbiya falsafasi bo'yicha ta'lim dasturini ishlab chiqish lozim.

4. Oliy ta'lim tizimida yoshlarda vatanparvarlik, halollik tuyg'ulari va tarixiy merosga nisbatan hurmat hissini shakllantirish lozim;

5. "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarida, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda tasavvufiy tariqatlar faoliyatini yoritish lozim;

6. Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband ma'naviy merosi mazmuni va mohiyatini aks ettiruvchi qisqa metrajli filmlar va videoroliklar olish kerak;

7. O'zbekiston tarixi telekanali doirasida "Tariqatlar silsilasi" ko'rsatuvini tashkil etish orqali olimlar, yozuvchilar, shoirlar va adabiyotshunoslarning davra suhbatini tashkil etish kerak;

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasi hamda "Harakatlar strategiyasi"dagi vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, mazkur sohadagi yetakchi mutaxassislarni jalb etgan holda o'tmish merosini o'rganish, saqlash, targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

РАХМОНОВ СУННАТИЛЛО МАВЛОНОВИЧ

**СРАВНИТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СУФИЙСКИХ
ВЗГЛЯДОВ ДЖАЛАЛИДИНА РУМИ И БАХАУДИНА
НАКШБАНДА**

09.00.03 – История философии

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (DSc)
ПО ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.3.DSc/Fa197.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), и на информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Каримов Сайимназар Каримович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Наврүзова Гулчехра Нейматовна
доктор философских наук, профессор

Махмудова Гули Тилабовна
доктор философских наук, профессор

Рузматзода Кодиркул Рузмат угли
доктор философских наук, доцент

Ведущая организация:

Джиззахский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится “10” июня 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового совета на базе Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.02.02. при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект 15. Тел.: (0366) 239-13-87; факс: (0366) 239-11-40 e-mail: rector@samdu.uz, Исторический факультет Самаркандского государственного университета, 1-этаж, 105-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрировано за № 78). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел.: (0366) 239-13-87; факс: (0366) 239-11-40)

Автореферат диссертации разослан “26” мая 2023 г.
(реестр протокола рассылки № 78 от “22” мая 2023 г.)



Ш.Ш.Негматова
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов
Ученый секретарь научного совета
По присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Идеологическое воздействие научного наследия великих просветителей с духовно-нравственной стороны на общественно-политические процессы, стремительно происходящие в мировом историческом развитии, и стабилизация изменений, возникающих в системе духовных ценностей становится конструктивным вопросом.

Освобождение человечества от пороков безнравственности особенно в период глобального развития и информационных угроз считается одним из актуальных задач сегодняшнего времени. Место суфизма в этом чрезвычайно важно, и суфийско-философские учения восточных мыслителей имеют особое значение в формировании современной молодежи как духовно-нравственной совершенной личности. Между тем, суфийско-философское наследие восточных мыслителей и их учения о совершенстве, в созданных ими тарикатах, нормализуют в духовно-нравственном плане радикальные изменения современности и сохраняют основанные на общечеловеческих ценностях принципы гуманизма.

В современных исследованиях мировой науки посредством изучения философского наследия великих мыслителей особое внимание уделяется теории и практике философии суфизма как отрасли, изучающей критерии духовно-нравственной деятельности. Также, наряду с суфийскими воззрениями в духовном наследии великих мыслителей, внесших значительный вклад в мировую цивилизацию, изучение с научно-философской точки зрения задач просвещения, истины и духовного развития, представляющих идеи тариката о духовно-нравственном воспитании совершенного человека, в настоящее время становятся объектом исследования социально-философских наук. С этой точки зрения, отраженные в суфийских воззрениях Джалалуддина Руми и Бахауддина Накшбанда идеи духовно-нравственного воспитания, самообладания, воспитания души, веротерпимость, справедливость и гуманность, ведущие человека к совершенству, становятся важным объектом исследования современной науки.

В нашей стране путем социально-философского исследования огромного научного наследия великих просветителей учения суфизма особое внимание уделяется его эффективному использованию в развитии общества, что создает почву для духовно-нравственного совершенства молодежи нового Узбекистана. «Нигде нет такого богатого прошлого, как у нашей страны, таких великих ученых, как наши предки. Мы должны глубоко изучить это наследие и суметь передать его нашему народу и миру»¹.

В реализации этих задач возникает необходимость изучения, прежде всего, суфийско-философских взглядов Джалалуддина Руми, прославившегося в восточной философии Средневековья, и суфийско-философских идей Бахауддина Накшбанда, выдвинутых в учении Накшбандия и достигших пика развития в эпоху тимуридов.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: Ислом цивилизацияси маркази асрлар давомида халқимизга хизмат қилади. Халқ сўзи. 20.11.2019. № 206 (6641). – Б. 1.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-6017 от 30 июня 2020 года «О мерах по коренному реформированию и поднятию на новый уровень государственной молодежной политики в Республике Узбекистан», № УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию образования и науки в период нового развития Узбекистана», № ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», № ПП-3080 от 23 июня 2018 года «О мерах организации центра исламской культуры в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», № ПП-4802 от 11 августа 2020 года «О мерах по образованию международного научно-исследовательского центра Имама Матуриди», а также в Постановлении Кабинета Министров от 22 июня 2018 года № 466 «О мерах по организации деятельности и поддержке Международной Исламской Академии Узбекистана» и других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹.

Научные исследования духовного наследия и суфийско-философских воззрений великих мыслителей, прославившихся своими суфийскими воззрениями в восточной философии Средневековья, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Исламском Верховном Совете Америки (США), Университете McGill, Институте изучения ислама (Канада), Университете Аль-Азхар (Египет), Институте восточной письменности при РФ (Россия), Институте Центральной Азии, Университете Сорбонна (Франция), Кембриджском, Оксфордском, Лондонском университетах (Великобритания), Стамбульском университете (Турция), а также научно-исследовательскими институтами философии и востоковедения Академии наук Таджикистана и Государственного национального университета Таджикистана

¹ Каранг: А.Арберри. Суфизм. Мистики ислама. М. 2002., Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. - М. 2002., А.Зарринкуб. Исламская цивилизация. М.2004., А.Хисматуллин. Исламский мистицизм и хаджаган-накшбандия//Мудрость суфиев. - С-Птб. 2001., А.Мухаммадходжаев. Идеология накшбандизма. - Душанбе, 1991., С.W.Ernst. Teachings of Sufism. - London. 1999., M.Fakhry A History of Islamic Philosophy. - New York, 1983. Шунингдек, диссертация мавзусига доир хорижий илмий-таджикотлар шархи <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp> каби электрон ресурслар манбалари асосида тайёрланди.

(Таджикистан), Международной исламской академией Узбекистана, Международным исследовательским центром имама Бухари (Узбекистан).

